



RESPUBLIKAMIZDA URBANIZATSIYALASH VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA INFRATUZILMALARNING AHAMIYATI

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti p.f.f.d PhD

Raximova Dilrabo Oktyabrovna

Qarshi davlat texnika universiteti

logistika fakulteti talabasi

Bahriddinova Ruxshona Furqat Qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada urbanizatsiyalash va globallashuv sharoitida infratuzilmaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda infratuzilmaning transport, energetika, kommunal, raqamli va ijtimoiy tarmoqlarining hududiy rivojlanishga ta'siri Qashqadaryo viloyati misolida o'rganilgan. Statistika ma'lumotlar asosida infratuzilma rivojining aholi bandligi, investitsiya faolligi va yashash sharoitlariga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, infratuzilmani kompleks rivojlantirish urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar; Urbanizatsiya, globallashuv, infratuzilma, hududiy rivojlanish, transport infratuzilmasi, energetika, investitsiyalar, Qashqadaryo viloyati

Kirish. Urbanizatsiya (frans. urbanisation, ing. urbanization, lot. urbanus shaharga mansub, urbs shahar) - jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. U. tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir.



U.ning torroq doiradagi demografikstatistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi. Dastlabki shaharlar mil. av. 3-1ming yilliklarda Misrda, Mesopotamiya, Suriya, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy, Hindixitoy, shuningdek, Yevropa va Afrikaning O'rta dengiz sohillarida vujudga kelgan. Yunonrim dunyosida esa Rim va Karfagen sh.larining mavqei yuqori bo'lgan. O'rta asrlar va Uyg'onish davrida kapitalistik ishlab chiqarish unsurlari shakllana boshladi. Bu jarayon shaharlarda aholi sonining o'sib borishiga, konsentratsiyalashuviga olib keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo'la boshladi. Urbanizatsiya va sanoat jamiyatining paydo bo'lishi bilan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni vujudga kelishini sotsiolog olimlar chuqurroq o'rganishga harakat qiladilar. Nemis olimi Ferdinand Tyonnis jamiyat va jamoa tushunchalari bilan shahar sotsiologiyasi sohasida muhim bilimlarga erishdi. Tyonnis jamiyatni tahlil qilishda asosan evolyutsion nuqtai nazarga amal qildi. Umuman olganda, u shahar va qishloq hayotini farqlovchi mezonlarni ishlab chiqdi. Georg Zimmel va Robert Park esa, urbanizatsiya jarayonlarida paydo bo'ladigan muammolarga alohida to'xtalib o'tdi. Bulardan, inson ekologiyasi, irqiy va etnik munosabatlar, aholi migratsiyasi, madaniy assimilyatsiya, ijtimoiy harakatlar va ijtimoiy tartibsizliklar va iy-joy masalalariga oid asarlar yaratdi qildi. Umuman olganda, u shahar va qishloq hayotini farqlovchi mezonlarni ishlab chiqdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlarida urbanizatsiya va globallashuv jarayonlari jadallik bilan kechmoqda. Ushbu jarayonlar iqtisodiyotning barcha sohalariga, xususan, hududiy rivojlanish, aholi bandligi, investitsiyalar oqimi va ijtimoiy farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Urbanizatsiya natijasida shaharlar soni va aholisi ortib borar ekan, infratuzilma tizimlariga bo'lgan talab ham keskin oshmoqda.

Infratuzilma — transport, energetika, suv ta'minoti, aloqa, uy-joy kommunal xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi tarmoqlar majmui bo'lib, iqtisodiy o'sish



va barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida hududlarning raqobatbardoshligi bevosita infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham urbanizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bir sharoitda hududiy infratuzilmani rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Xususan, Qashqadaryo viloyati agrar-sanoat yo'nalishiga ega bo'lishi bilan birga, so'nggi yillarda sanoatlashuv va shaharlashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan hududlardan biridir..

O'zbekistonda urbanisatsiya jarayoni o'z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Uning rivojlanishi o'lkamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbekistonda eng qadimiy shaharlar bilan birga XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan shaharlar ham mavjud. 1913-1980-yillarda O'zbekiston shaharlari soni va shahar aholisi salmog'i o'sdi. O'zbekistonda 120 ta shahar bo'lib, Toshkent millioner shahar hisoblanadi. XIX asrning oxiridan boshlab O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni rivojlanib kelmoqda. Bubungi kunda a statistika agentligining 2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekistonning demografik ko'rsatkichlari quyidagicha:

O'zbekistonda urbanisatsiya jarayoni o'z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Uning rivojlanishi o'lkamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbekistonda eng qadimiy shaharlar bilan birga XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan shaharlar ham mavjud. 1913-1980-yillarda O'zbekiston shaharlari soni va shahar aholisi salmog'i o'sdi. O'zbekistonda 120 tashahar bo'lib, Toshkent millioner shahar hisoblanadi. XIX asrning oxiridan boshlab O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni rivojlanib kelmoqda.

Respublikamizda urbanizatsiya va globallashuv sharoitida infratuzilmani qo'llashdan maqsad

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi urbanizatsiyalash va globallashuv sharoitida infratuzilmaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini



ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqola doirasida infratuzilmaning hududiy rivojlanish, investitsiya muhitini yaxshilash, aholi bandligini oshirish va yashash sharoitlarini yaxshilashdagi o'rni yoritiladi. Qashqadaryo viloyati misolida transport, energetika, kommunal va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining hozirgi holati statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi.

Urbanizatsiya jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanadi va bu holat aholi yashash joylarining o'zgarishi, shahar va qishloq o'rtasidagi nisbatning siljishi orqali namoyon bo'ladi. Dastlabki bosqichda qishloq belgilari ustun bo'lgan shaharlar shakllanadi, ammo ular hali qishloqlardan rivojlanishda orqada bo'ladi. Keyingi bosqichlarda shaharlar jadal rivojlanib, qishloqlardan ustunlikni qo'lga kiritadi va qishloq areallarida markazlashuv jarayoni boshlanadi. Vaqt o'tishi bilan aholining shaharlarga ko'chishi kuchayadi, natijada yirik shaharlarda aglomeratsiyalashuv ro'y beradi va bu markazlarda aholi zichligi ortadi, qishloq hududlarida esa kamayadi. Bu o'zgarishlar yirik shaharlarning haddan tashqari zichlashuviga olib keladi, kichik shahar va qishloqlarda esa aholi kamayadi. Biroq oxirgi bosqichda aholining yirik shaharlardan chiqib, kichik shaharlar va shahar atroflariga ko'chishi kuzatiladi. Bu esa suburbanizatsiya va rurbanizatsiya jarayonlariga turtki beradi. Urbanizatsiya jarayoni aholi migratsiyasi, iqtisodiy imkoniyatlar, infratuzilma rivoji va yashash sharoitlari bilan chambarchas bog'liq. Aholi doimiy ravishda yashash uchun eng qulay, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqbul hududlarni tanlashga intiladi. Bu esa urbanizatsiyani bir yo'nalishda emas, balki murakkab va davriy jarayon sifatida namoyon qiladi. Shu sababli urbanizatsiyani faqat shaharlarning o'sishi emas, balki aholining yashash makoni va uslubidagi o'zgarishlar tizimi sifatida qarash kerak bo'ladi.

Urbanizatsiya darajasi bo'yicha jahondagi barcha mamlakatlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 50 foizdan yuqori).



2. O'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20-50 foiz).
3. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20 foizdan kam).

Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning barcha davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko'pchilik mamlakatlari kiradi.

O'rtacha darajadan urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning asosiy qismi Janubiy, G'arbiy, Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo regionlari hamda Afrikada joylashgan.

Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning ham ko'pchiligi Afrika va Osiyoda mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Bundan tashqari, maqolaning maqsadi infratuzilma rivojidagi mavjud muammolarni aniqlash, ularning urbanizatsiya jarayonlariga ta'sirini baholash hamda hudud infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Respublikamizda urbanizatsiya va globallashuv sharoitida infratuzilmani qo'llashdagi muommolar

Urbanizatsiya va globallashuv sharoitida infratuzilma rivojida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Birinchidan, shahar aholisi sonining tez o'sishi transport, uy-joy, suv ta'minoti va elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Bu holat mavjud infratuzilma quvvatlarining yetarli bo'lmasligiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, Qashqadaryo viloyatida qishloq aholisi ulushi yuqori bo'lib, shahar va qishloq infratuzilmasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Ayrim tumanlarda ichimlik suvi, kanalizatsiya tizimi, sifatli avtomobil yo'llari va raqamli aloqa xizmatlarining yetishmasligi kuzatiladi.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida investitsiyalarni jalb qilish uchun infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hududning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Logistika va transport



tarmoqlarining cheklanganligi qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini tashish xarajatlarini oshiradi

Urbanizatsiya darajasi bo'yicha jahondagi barcha mamlakatlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 50 foizdan yuqori).
2. O'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20-50 foiz).
3. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20 foizdan kam).

Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning barcha davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko'pchilik mamlakatlari kiradi.

O'rtacha darajadan urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning asosiy qismi Janubiy, G'arbiy, Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo regionlari hamda Afrikada joylashgan.

Respublikamizda urbanizatsiya va globallashuv sharoitida infratuzilmani qo'llashda yechim va takliflar

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, hududiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha kompleks va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Ushbu dasturlar shahar va qishloq hududlarini birgalikda qamrab olishi lozim.

Ikkinchidan, transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, avtomobil va temiryo'l tarmoqlarini yaxshilash orqali hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish mumkin.

Uchinchidan, energetika infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish orqali barqaror energiya ta'minotiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.



To‘rtinchidan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, keng polosali internet tarmoqlarini qishloq hududlarigacha yetkazish ta‘lim va xizmatlar sifati oshishiga xizmat qiladi.

Bu imtiyozlar qishloq aholisini shaharlarga yaqinlashishga undaydi. Biroq, BMTning 2018-yildagi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston shaharlarida mamlakat aholisining yarmidan bir oz ko‘prog‘i istiqomat qiladi. Jahon bankining “Vaqt keldi: O‘zbekiston urbanizatsiyadan qanday qilib barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida foydalanishi mumkin?” hisobotiga ko‘ra, xuddi shunday rivojlanish darajasiga ega mamlakatlarga qaraganda bu nisbatan past ko‘rsatkichdir.

2018-yilda O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatning urbanizatsiya darajasi bundan ham past ekani va 35,5 foizni tashkil etishini ta‘kidlagan edi. Bu 2014-yildagi ko‘rsatkich bo‘lib, BMT hisobotiga ko‘ra, Osiyo (48 foiz) va hatto Afrika (40 foiz) uchun xos bo‘lgan o‘rtacha ko‘rsatkichdan past hisoblanadi.

Urbanizatsiya O‘zbekiston taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Shaharlarning o‘shishi butun mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishi va aholi turmush sharoitini yaxshilashi mumkin. Iqtisodchilar Behzod Hoshimov va Nuriddin Ikromov har qanday mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘lamini oshirish orqali samaraliroq bo‘lishini ta‘kidlagan edi. Aholi zich joylashgan hududlarda ish joylarini egallashi mumkin bo‘lgan potensial ishchilar mavjudligi tufayli ishlab chiqarish ko‘lamini oshirish osonroq.

Shaharlar korxonalarga mutaxassislarni yollash, logistika, kelishuvlarni amalga oshirish va biznes yuritishni osonlashtiradi. Ba‘zi faoliyatlar faqat katta shaharlarda foyda keltiradi. Konsert zallari, ko‘rgazma majmualari aholi zichligi yuqori joylardagina samarasini beradi. Qaynayotgan shahar hayoti budjetga ko‘proq soliq tushumlarini olib keladi va uning fuqarolari uchun gart-sharoitlarni oshirishga imkon yaratadi.



2010-yildan 2020-yilgacha O'zbekiston aholisi 20 foizga oshgan. Qishloq aholisi shaharlarga qaraganda, kichik shaharlar aholisi esa yirik shaharlarga qaraganda tezroq o'sib bormoqda. Shu bilan birga, mamlakatdagi kichik shaharlarning deyarli 80 foizi 100 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan shahardan 50 km uzoqlikda joylashgan.

Eng tez rivojlanayotgan jamoalarning aksariyati funksional jihatdan yirik shaharlarning bir qismidir. Shahar atrofi zichligi oshib, shahar darajasiga yetmoqda. Bir nechta kichik aholi punktlari va markazdagi katta shahar birgalikda ulkan urbanizatsiyalashgan hududni shakllantirmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu yuqori tuzilma aholisining faqat bir qismi shaharliklardir.

Respublikamizda urbanizatsiya va globallashuv sharoitida infratuzilmani qo'llashda erishilgan natijalar

O'tkazilgan tahlil va statistik ma'lumotlar asosida urbanizatsiyalash va globallashuv sharoitida infratuzilmaning rivojlanish darajasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, transport, energetika, kommunal va raqamli infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga, investitsiyalar oqimining ko'payishiga va aholi bandligining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Natijalar shundan dalolat beradiki, infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni qisqartirish imkonini bermoqda. Xususan, avtomobil yo'llarining yaxshilanishi va logistika xizmatlarining kengayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish samaradorligini oshirgan. Shuningdek, energetika va raqamli infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi aholining yashash sharoitlari yaxshilanishiga, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga hamda urbanizatsiya jarayonlarining nisbatan muvozanatli kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi.



Urbanizatsiyaning globallashuv omillari shaharlar va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy va texnologik aloqalar kuchayishi bilan bog'liq. Quyidagi omillar urbanizatsiyaning globallashuviga ta'sir qilmoqda:

1. Iqtisodiy integratsiya: Yirik shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylangan. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi ham shaharlarni xalqaro biznes markaziga aylantiradi. Bu jarayon urbanizatsiyani tezlashtiradi.
2. Texnologik taraqqiyot: Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) urbanizatsiya va globallashuv jarayonlarini tezlashtiradi. Internet, mobil telefonlar va global tarmoq orqali insonlar va kompaniyalar o'rtasidagi aloqalar osonlashadi.
3. Madaniy globallashuv: Shaharlar ko'plab madaniy va ijtimoiy oqimlar orqali bir-biriga bog'lanadi. Xalqaro ta'sir tufayli turli madaniyatlarning elementlari shaharlar hayotiga singib ketmoqda.
4. Transport tarmog'ining rivojlanishi: Global transport tarmog'i shaharlar o'rtasida odamlar, tovarlar va xizmatlarning harakatlanishini osonlashtirdi. Aeroportlar, portlar va temir yo'l tarmoqlari orqali shaharlar bir-biriga yanada yaqinlashmoqda.
5. Migratsiya: Qishloqlardan shaharlarga hamda bir mamlakatdan boshqasiga migratsiya oqimlari globallashuv va urbanizatsiya jarayonini tezlashtiradi. Ish va yaxshi yashash sharoitlarini qidirishda ko'plab odamlar shaharlarni tanlamoqda.

Ushbu omillar birgalikda urbanizatsiya va globallashuvning asosiy drayverlariga aylanib, shaharlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga olib kelmoqda. Urbanizatsiya va globallashuv milliy iqtisodiyotga har tgomonlama ta'sir ko'rsatadi. Atrof-muhitga ta'sir va xarajatlar: Urbanizatsiya va globallashuv jarayoni ekologik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bu muammolarni hal qilish uchun davlatlar qo'shimcha xarajatlar qilishadi, bu esa byudjetga yuk bo'lishi mumkin.



Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya va globallashuv sharoitida infratuzilmani rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi hududlarining, jumladan Qashqadaryo viloyatining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilma tarmoqlarining rivojlanganligi hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi, aholi bandligini ta'minlaydi va turmush sifatini yaxshilaydi. Urbanizatsiya jarayoni va uning globallashuvi bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, jahonda yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shaharlarning o'sishi, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning markazlashuvi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va innovatsiyalarni rag'batlantirish kabi foydali jihatlar bilan birga, shaharlarda resurslar va xizmatlar taqsimoti, transport tizimlari va atrof-muhitga ta'siri kabi salbiy oqibatlar ham yuzaga kelmoqda. Qashqadaryo viloyati misolida shuni ta'kidlash mumkinki, transport, energetika, kommunal va ijtimoiy infratuzilmani kompleks rivojlantirish urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish, shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish hamda hududning milliy va global iqtisodiyotga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu boisdan, infratuzilma rivojini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali hududlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Mazkur maqolada ilgari surilgan xulosa va takliflar hududiy infratuzilma siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid farmon va qarorlar. – Toshkent, 2017–2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining demografik va urbanizatsiya ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2023.



3. Abduqodirov A.A., Rahmonov B.S. Hududiy iqtisodiyot va infratuzilma rivoji. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
4. Mirzayev T.Sh. Urbanizatsiya jarayonlari va hududiy rivojlanish muammolari. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Karimov I.A. Iqtisodiy islohotlar va hududiy rivojlanish masalalari. – Toshkent, 2018.
6. World Bank. Time to Act: Uzbekistan's Urbanization for Sustainable Development. – Washington D.C., 2019.
7. World Bank. Urban Development and Infrastructure Report. – Washington D.C., 2022.
8. United Nations Department of Economic and Social Affairs. World Urbanization Prospects 2023. – New York, 2023.
9. UN-Habitat. Urban Infrastructure and Sustainable Cities. – Nairobi, 2021.
10. Glaeser E. Triumph of the City. – New York: Penguin Press, 2011.